

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA YURT FAROVONLIGINI TARG'IB ETISH

Xayrullayeva Marjona Xayrulla qizi

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 312-guruh 3-kurs talabasi, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. Yurtimiz, tinch va osoyishta unda gullab-yashnayotgan shoir-u adiblarimiz esa bisyor. Har bir o'zbekning haqiqiy og'loni bor ekan, ular doimo qalbidan yonib-jo'shib vatanini madh etadilar. Shunday shijoatli adiblarimizdan biri Shukur Xolmirzayevdir. Bu adibimiz haqiqiy surxonning Alpomishi va tinib-tinchimas, vatanparvar, xalq dardini o'zini dardigi kabi his qiladigan adib bo'lishi bilan birgalikda, eng mashhur obrazlardan biri bo'lgan "Hamlet" rolini jonlantirgan. Ushbu maqola orqali Shukur Xolmirzayev va uning ijodi bilan kichik bo'lsada o'zingizga xulosa hosil qilishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: adib, xalq, vatanparvar, shijoat, Surxon, ravnaq, yozuvchi, hikoya, asar

Asosiy qism

XX asrning 60-yillaridan o'zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan va XXI asrda ham barakali ijod etib kelayotgan yozuvchilar avlodi ichida Shukur Xolmirzayev alohida ajralib turadi. Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining "bosmachilik harakati" deb atab kelingan davrini o'rgana boshladi. Aynan ushbu ijodkor tomonidan ko'plab hikoyalar yozilgan bo'lib unda yaqqol Surxon vohasining ajib xilqatini ko'rishingiz mumkin, shu bilan birgalikda o'sha avrdagi soddagina, oddiylikni ko'proq afzal ko'rish bilan birgalikda adibimiz tomonidan kuchli jasorat va vatanparvarlik hissini alohida ajralib turganini yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shukur Xolmirzayev asarlarni betakroridir, biroq haqiqiy vatanparvarlik, insonlar qalbida vatanga muhabbatni uyg'otivchi asalaridan biri "Qora kamar" (1987) asaridir. Sho'ro davlatining xalqparvar davlat ekaniga, u olib borgan ichki va tashqi siyosat xalq va mamlakat manfaatiga xizmat qiluvchi siyosat ekaniga astoydil ishongan kishining hayoti va ruhiy olamidagi ziddiyatlar kurashi tasviri mazkur romanning markazida turadi. Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining "bosmachilik harakati" deb atab kelingan davrini o'rgana boshladi. Aynan ko'plar jur'at eta olmagan bir paytda, haqiqiy vatanparvarlik hissi yuragida jo'sh urib turgan bu adibimiz, vatani uchun hatto kurashishga ham tayyor bo'lib turgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan "Qora kamar" spektakli yosh avlodda tarixiy o'tmishga yangicha yondashish istagining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Bunda mazlum xalqning, ayollarning qiyinchiliklarga duchor bo'lishi shu bilan birgalikda bu qiyinchiliklarga qarshi qanday yengish kerakligi o'z bo'lsada o'z ifodasini topgan. U faqatgina hikoyanavis bo'libgina qolmay ko'plab qissa, romanlari nashr ettirgan va dramaturgiya sohasida ham o'zini sinab ko'rgan. Ya'ni adibimiz xalq dardini yuzaga chiqara olgan va bunga yana bir bor urina olgan mard adiblarimizdan biri edi. Aynan shu narsani aytib o'tish kerakki, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov yozganidek, „Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani jamiyat mafkurasi deb bil.

Tanqidchi U. Normatov «Zaminda yashaymiz, zaminni o‘ylaymiz» maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: «Inson va tabiat munosabati Sh. Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...». Shu nuqtai nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyalarini ko‘zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Badiiy asarda yozuvchi aytmqochi bo‘lgan g‘oya, fikrni obraz ifoda etadi. Uning qanday tasvirlangani - yozuvchi mahoratiga bog‘liq. Adib o‘z hikoyalarida bolalar obrazini kiritish orqali ularning ruhiyatida yuz beradigan turli xil jarayonlarni o‘quvchiga jonli va ishonarli tarzda yetkazib berishga harakat qiladi. Xususan, "O‘zbeklar"(O‘zbek xakteri) hikoyasidagi Ergashvoy kishi e‘tiborini tortadigan qahramondir. Chunki u har qanday sharoitda nafsi uchun vijdonini sotmaydigan , andishali va barcha atrofda kishilarga yaxshilikni ravo ko‘ruvchi ijobiy obrazdir. Ushbu hikoyada Toshkent viloyatidagi qishloqlardan biriga paxta terish uchun borgan talabalarning sal kam bir oylik turmushi aks ettirilgan bo‘lib, og‘ir vaziyatlarga duch kelganda, insoniy xarakteridan kelib chiqib, yo‘l tutgan Azimjon, O‘rmon aka va boshqa buqalamun obrazlar orqali Ergashvoy ularga nisbatan ancha yosh bo‘lsa-da, mulohazali fikrlaydigan va sofdil yigitligiga amin bo‘lamiz. [2]

Adibimiz o‘zining asarlarining jo‘shqinligi takrorlanmasligi va yangi g‘oyalarning mujassamlashgani bilan ajralib turadi. Aynan oltmish besh yillik umri davomida sermahsul ijod qilgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Badiiy asarda hayot parchasi yozuvchi dunyoqarashi va salohiyatiga muvofiq anglashilgan, baholangan, to‘ldirilgan, ta‘sirchanlashtirilgan voqelik sifatida tasvirlanadi. Demak, uning mazmunida muallifning hayotni qanday tushunishi, uni qanday baholayotgani ham muhrini bosadi: mazmun fikr bilan, to‘g‘rirog‘i yozuvchi g‘oyasi bilan chambarchas bog‘lanadi, g‘oyaviy mazmun (bir butun va hal qiluvchi kuch) obrazlar qismati orqali tiriladi. Shunday ekan, Shukur Xolmirzayev asarlarida ham o‘zining dunyoqarashi, o‘zining borlig‘i jo bo‘lgan albatta. Shukur Xolmirzayevning «Bodom qishda gulladi», «Tabassum», «O‘zbeklar», «Qadimda bo‘lgan ekan», «Quyosh-ku, falakda kezib yuribdi», Ko‘k dengiz», «Navro‘z», «Xumor» singari hikoyalari so‘nggi bosqich o‘zbek adabiyotining bu janrdagi ibratli namunalaridir

Shukur Xolmirzayev adabiyotni, undagi asarlarni hayot bilan bevosita bog‘laydi, Demak, adabiyotning asosi, uni dunyoga keltiruvchi omil — hayotdir. U bitmas-tuganmas yaratish qudratiga, yangilanishga, o‘shish va rivojlanishga qodir ekan, adabiyot ham unga mos hoida shu qodirlikni o‘zida mujassam etadi, u ham kamolot sari taraqqiy qilishdan, hayot baxshida etgan yangiliklarni kashf etishdan to‘xtamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini. G. N. Tavaldieva.
2. www.ziyouz.uz. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi.
3. Каримов Н. - XX аср ўзбек адабиёти, "Ўқитувчи"нашриёти, Т.: 1999. – 544 б.
4. Бобоев Т. Бадий ижод хакида . Т., Узадабийнашр, 2001. 210 б.
5. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т.: 2004. – 260 б.
6. Қозокбой Йўлдош. Очқич сўз. "Тафаккур" нашриёти. 2019. – 688 б.